

MA'MURIY HUJJATNING QONUNIYLIGINI TEKSHIRISH: MA'MURIY HUJJATNI HUQUQIY EKSPERTIZA QILISH TARTIBI

Y.Saidazimov

Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası

Katta o'qituvchisi yusuf_saidazimov@mail.ru

+998996425295

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10665326>

“Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunning 53-moddasida ma'muriy hujjatning mazmuniga qo'yilgan talablar mavjud bo'lib, ma'muriy hujjat qonuniy, asoslangan, adolatli, aniq va tushunarli bo'lishi kerakligi belgilangan.

Ma'muriy hujjatning qonuniyligi talabi ma'muriy hujjatning huquqni qo'llash akti sifatidagi yuridik mohiyatidan kelib chiqadi. Qonuniylik prinsipi, mazkur moddaning ushbu qismi mazmunida “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga izohlarda ochib berilganidek, ma'muriy hujjat ma'muriy organning vakolatlari doirasida qonun asosida va unga muvofiq qabul qilinishi kerakligini anglatadi. Ma'muriy hujjatning qonunga muvofiqligi ikki jihatga ega: moddiy huquqiy va protsessual huquqiy. Moddiy qonuniylik ma'muriy hujjatning ma'muriy-huquqiy faoliyatning tegishli sohasidagi moddiy huquq normalariga muvofiqligini anglatadi. Protssesual qonuniylik deganda “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunning va maxsus qonunlarda belgilangan ma'muriy tartib-qoidalariga muvofiq ma'muriy hujjat qabul qilinishi tushuniladi. Ma'muriy hujjatning qonunga muvofiqligi nuqtai nazaridan qonuniyligi masalasini yoritishda qonun ustuvorligi tamoyilini esga olish kerak. Hukumat qarori yoki idoraviy normativ-huquqiy hujjatga muvofiq qabul qilingan, lekin qonun talablariga, masalan, “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunga mos kelmaydigan ma'muriy hujjat qonuniy bo'lishi mumkinmi? Qonun ustuvorligi nuqtai nazaridan javob faqat salbiy bo'lishi mumkin. Huquqiy davlatda qonunga mos kelmaydigan ma'muriy hujjat, qanday qonunosti hujjatlari belgilangan bo'lishidan qat'i nazar, qonuniy bo'lishi mumkin emas. Qonun talablaridan chetga chiqishni taqiqlash bir qonunga muvofiq, biroq boshqa qonun normalarini to'liq yoki qisman e'tiborsiz qoldirgan holda qabul qilingan ma'muriy hujjatning qonuniyligini istisno qiladi, bu ma'muriy ish uchun ham qo'llaniladi. Agar ma'muriy hujjat qonunning bir normasiga muvofiq, lekin qonunning boshqa normasi hisobga olinmagan holda qabul qilingan bo'lsa, u qonuniylik talabiga javob bermaydi. Chunki qonundan chetga chiqish hollatlari mavjud. Demak, budan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ma'muriy hujjatning qonuniyligni tekshirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu borada xorijiy davlatlar tajribasida nimalar belgilangan.

Germaniya huquqiy ta'lim va amaliyotida ma'muriy hujjatning qonuniyligini tekshirish uchun qo'llaniladigan standartlashtirilgan ekspertiza sxemasi mavjud. Ekspertiza sxemasi rasmiy va moddiy qonuniylikka bo'linadi. Rasmiy qonuniylik deganda protsessual va rasmiy talablarga rioya qilish tushuniladi, moddiy qonuniylik esa birinchi navbatda ma'muriy hujjatning faktik to'g'riligiga taalluqlidir. Ekspertiza odatda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ma'muriy hujjatning mavjudligi;

Rasmiy qonuniylik;

Moddiy qonuniylik.

1. Ma'muriy hujjatning mavjudligi.

Ma'muriy hujjat yuqorida ko'rsatilgan ma'muriy hujjatning xususiyatlariga ega bo'lsa, mavjud bo'ladi. Birinchidan, ma'muriy hujjatga qo'yiladigan barcha talablarning bajarilishi tekshiriladi.

2. Rasmiy qonuniylik barcha protsessual va rasmiy talablarga rioya qilinganligini tekshirishni o'z ichiga oladi.

Moddiy qonuniylik ma'muriy hujjat mazmunining yuridik jihatdan to'g'riligini tekshirishni o'z ichiga oladi.

3. Ma'muriy hujjatga e'tiroz bildirish.

Ma'muriy hujjatdan norozi bo'lgan taqdirda, unga e'tiroz bildirish imkoniyati mavjud. E'tiroz bildirish orqali ma'muriy hujjatni qabul qiluvchi shaxs undan noroziligini bildirishi mumkin.

Thomas Schmitzning ta'klifiga ko'ra ma'muriy hujjatning qonuniyligini tekshirish uchun moddiy va rasmiy qonuniylik nazaridan tekshirilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Rasmiy qonuniylik quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

I. Hokimiyat vakolati mavjudligi.

1) Umumiy vakolat yoki mahalliy vakolat;

2) Maxsus qonunga yoki "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi (Verwaltungsverfahrensgesetz) qonunga muvofiqligi;

II. Prodseduraviy jarayon.

1) tinglanish imkoniyatining mavjudligi, (Vvfg 28);

2) tekshirish, (Vvfg 29);

3) manfaatdor uchinchi shaxsning ishtiroki, (Vvfg 13);

4) vakolatli vakillar va maslahatchilarning vakolati, (Vvfg 14);

III. Shakliy qonuniylik.

1) Ma'muriy hujjatni qabul qilish shakliga rioya qilinganligi, (Vvfg 37);

2) Vakolatli organing muxri, imzosi, sanasi;

3) Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonuning 39-moddasi 1-2-qismlariga muvofiqligi.

Moddiy Qonuniylik.

I. Asosiy qoidalar

1) hokimiyat asosining zarurligi;

2) huquqiy asosning mavjudligi;

3) bunday ma'muriy akti qabul qilishning huquqiy asosi sifatida qonunchilikning malakalanishi;

4) Yevropa Ittifoqi qonunlariga muvofiqligi

II Umumiy huquqiy shartlar qondiriladi.

1) Ishonchliligi, (37 I Vvfg)

2) ijro etish imkoniyati mavjudligi

3) mutanosibliigi

4) ixtiyoriy qabul qilingan qarorning qonuniyligi

Germaniya qonunchiligida ma'muriy hujjatning qonuniyligi masalasi ushbu protseduraviy jarayon orqali aniqlanadi. Bunda ma'muriy aktning qonuniyligi masalasi unig ustidan shikoyat qilish tartibini, hamda undan kutilayotgan zararni imkon qadar kamaytirishga olib keladi.

References:

1. Saidazimov Y. Ma'muriy organlar tomonidan diskretion vakolatni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Bakalavriat va magistratura talabalarining ilmiy ishlari [Peculiarities of the use of discretionary power by administrative bodies. Scientific works of undergraduate and graduate students]. Collection of scientific works on the results of the international distance scientific-practical conference. Tashkent, TSUL, 2020, vol. 562.
2. To improve the administration of justice by prescribing fair administrative procedure. Administrative procedure act. Public law. 404-79th congress. Chapter 324-2d session, p. 7.
3. Zoilboev J. Administrative reforms of education system in Uzbekistan. Jurnal pravovih issledovaniy – Journal of Legal Studies, 2021, spec. iss., no. 1.
4. Zoilboev J.A. New procedure for resolving investment disputes in a judicial order. International scientific and current research conferences, 2021, no. 1 (1), pp. 209–213.
5. Zoilboev J., Cyman D. Consumer protection: on the example of Uzbekistan and the European Union. International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences, 2022., no. 16 (01), pp. 1–8. ISSN: 2349-7793.
6. Nematov J. Improvement of Administrative Procedures in the Republic of Uzbekistan: Administrative and Legal Framework: Comparative-Legal Analysis. Tashkent, 2015, p. 86.
7. Davydov K.V. The principles of administrative procedures: comparative legal research. Actual Issues of Public Law, 2015, no. 4 (34), p. 18.
8. Goziev K. Democratization of state power and governance is an important condition for the principle of separation of powers. International Scientific and Current Research Conferences, 2021, no.